

**O‘ZBEKISTON RESRUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

«MOLIYAVIY TAHLIL VA AUDIT» KAFEDRASI

Qo‘lyozma huquqida
UDK: 658.1:336.5 (575.1)

NU‘MANOV FARHODJON NABIJONOVICH

TIJORAT BANKLARIDA AUDITORLIK TEKSHIRUVINI TASHKIL ETISH

Mutaxassislik: 70410102 - «Audit (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)»

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar:

i.f.d., prof. N.Xajimuratov

TOSHKENT-2023

Magistrlik dissertatsiya ishi «Moliyaviy tahlil va audit» kafedrasida dastlabk himoyadan o'tgan.

9 -sonli bayonnoma «25» aprel 2023 y.


Kafedra mudiri: i.f.d., professor N.Sh.Xajimuratov


imzo _____ sana _____

Ilmiy rahbar: i.f.d., professor N.Sh.Xajimuratov


imzo _____ sana _____

Magistr: N.F.Nu'manov


imzo _____ sana _____

Dissertatsiya "Moliya va buxgalteriya hisobi" fakultetida 2023 yil
«18» may da

№ MUA-01/3 raqami bilan ro'yxatga olindi.

ANNOTATSIYA

Ushbu magistrlik dissertatsiyasi ishida banklarda auditorlik tekshiruvlarini tashkil qilish va o'tkazish uslubiyoti asoslari ishlab chiqildi, mamlakatimiz iqtisodiyotida, jumladan bank tizimida auditorlik tekshiruvlarining o'rni va vazifalari ilmiy asoslandi, respublikamizda bank auditini rivojlantirish bilan bog'liq muammolar va ularni yechimlari ishlab chiqildi, audit va bank faoliyati xalqaro standartlarining zamonaviy metodikalarini qo'llash bo'yicha tavsiyalar berildi, buxgalteriya hisobi qoidalari va xalqaro moliyaviy hisobot standartlarini qo'llash bo'yicha tavsiyalar berildi, tijorat banklarini ichki va tashqi audit bo'yicha baholash masalalari nazariy va amaliy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: Bank, muhumlik, risk, audit, ichki audit, ichki audit xizmati, auditning xalqaro standartlari, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari.

ANNOTATION

In this master's thesis, the foundations of the methodology of organizing and conducting audits in banks were developed, the role and tasks of audits in the economy of our country, including the banking system, were scientifically substantiated, problems related to the development of bank audits in our republic and their solutions were developed, modern international standards of audit and banking activity were developed. recommendations were given on the application of methods, accounting rules and international financial reporting standards were given, the evaluation issues of commercial banks by internal and external audit were theoretically and practically justified.

Key words: Bank, importance, risk, audit, business audit, business audit service, international standards of auditing, international standards of financial reporting.

MUNDARIJA

Annotatsiya	3
Mundarija	5
Keltirilgan jadvallar ro'yxati	6
Keltirilgan rasmlar ro'yxati.....	7
Keltirilgan qisqartmalar ro'yxati	8
I BOB. KIRISH	9
1.1. Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi	9
1.2. Tadqiqot maqsadi va vazifalari	11
1.3. Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari	11
1.4. Tadqiqot obyekti va predmeti	11
1.5. Tadqiqot natijalarining ilmiy–nazariy va amaliy ahamiyati	12
1.6. Tadqiqotning tarkibiy tuzilmasi	12
II BOB. ADABIYOTLAR SHARHI	14
2.1. Ilmiy–nazariy adabiyotlar sharhi	14
2.2. Ilmiy–amaliy adabiyotlar sharhi	23
III BOB. TADQIQOT METODOLOGIYASI	37
3.1. Tadqiqotda qo'llanilgan usullar	37
3.2. Tadqiqotning ma'lumot manbalari	37
IV BOB. TADQIQOT TAHLILI VA NATIJALARI	38
4.1. Audit texnologiyasining mohiyati, auditorlik tekshiruvini tashkil etishning bosqichlari va auditorlik tekshiruvini rejalashtirish	38
4.2. Bank auditida muhimlik, auditorlik riski va audit strategiyasi, kredit operatsiyalari bo'yicha risklar monitoring.....	51
4.3. Bank auditini sifatini oshirishni tashkil etish.....	59
4.4. Tijorat banklarida ichki va tashqi audit tekshiruvlarini takomillashtirish	85
V BOB. XULOSA	98
5.1. Tadqiqot savoliga tegishli natijalarning qisqacha ifodasi.....	98
5.2. Tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan takliflar va tavsiyalar....	99
5.3. Tadqiqot cheklovlari va kelgusi tadqiqotlar uchun takliflar.....	99
5.4. Tadqiqot natijalarining amaliyotga tegishliligi vanatijalarning amaliy hamiyati.....	99
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	101
ILOVA.....	105

I BOB. KIRISH

1.1. Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.

Iqtisodiy rivojlanishning hozirgi sharoitida iqtisodiy tamoyil va normativ qonunchilikka amal qilib, faoliyat ko'rsatayotgan bank tizimi iqtisodiyotni rivojlantirishga va milliy valyutani barqarorlashuviga olib keladi. Bank faoliyatining barqarorligi, uning raqobatbardoshligi va istiqbollari ko'p jihatdan o'tgan davrda erishilgan natijalar va yo'l qo'yilgan kamchiliklarni aniqlashga bog'liq. Albatta, bank boshqaruvi samaradorligi va iqtisodiy tamoyillarga amal qilishi qancha yuqori bo'lsa, u shunchalik ko'p foyda ko'radi va natijada barqaror moliyaviy institutga aylanadi.

Auditorlik faoliyatining milliy iqtisodiyotda tutgan muhim o'rnini inobatga olib, mustaqillik yillarida Respublikamizda tashqi auditorlik faoliyati tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirishga katta e'tibor qaratib kelinmoqda. Ammo, xozirgi kunda Respublikamizda milliy auditorlik faoliyatini zamonaviy moliya bozori talablariga mos ravishda rivojlantirishga berilayotgan katta e'tiborga qaramasdan, milliy audit tizimining amaliy va metodologik asoslari borasida o'z yechimini kutayotgan bir qator masalalar ham mavjud. Bu muammolarga alohida to'xtalib o'tar ekan, Prezident Sh.M.Mirziyoev, "Mamlakatimiz hududlariga salmoqli investisiyalarni kiritishga doir muammolarga alohida e'tibor qaratish zarur. Shu sababli tajriba loyihasi tariqasida Milliy bank misolida quyidagi tizimni joriy etish bo'yicha taklif kiritaman.

Bank investisiya faoliyatiga o'z mablag'lari bilan birga, tashqaridan moliyalashtirish manbalarini jalb etish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqishi kerak" - deya ta'kidlab o'tdilar.¹ Bu esa moliya tizimining boshqa tarmoqlari kabi audit tizimida ham auditorlik faoliyatining kelgusi rivojiga qaratilgan va xalqaro talablardan kelib chiqqan holda keng qamrovli chora-tadbirlarni amalga oshirishni talab etadi.

Shuningdek, 2017-yil 7-fevralda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi. Toshkent "Xalq so'zi" gazetasi 2017-yil 16-yanvar.